



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA TURIZM XIZMATLARINING O'SISH SUR'ATLARIGA TA'SIR ETUVCHI INSTITUTSIONAL RIVOJLANISH OMILLARI

Mirzaev Kulmamat Djanzakovich,

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori, iqtisod fanlari doktori.

kulmamatmirzaev@mail.ru

Tleumuratov Bahadir Genjemuratovich,

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil tadqiqotchisi.

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18i.1595>

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 15-aprel 2026-yil

Tasdiqlandi: 17-aprel 2026-yil

Jurnal soni: 18-A

Maqola raqami: 35

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

xizmat ko'rsatish, turizm iqtisodiyoti, ekologik turizm, raqobatbardoshlik, turistik-rekreasion hududlar, global turizm, mehmondo'stlik sanoati, turizm salohiyati

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada Respublikamizda, ayniqsa uning yetakchi hududlaridan biri hisoblangan Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm xizmatlarining o'sish sur'atlariga ta'sir etuvchi institutsional rivojlanish omillariga alohida e'tibor qaratilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm xizmatlarini rivojlantirishning taraqqiyot tendensiyalari o'rganish muhim vazifa sifatida qayd etilib, turizm xizmatlarining takomillashuvi mamlakatning iqtisodiy islohotlari, infratuzilma modernizatsiyasi, transportlogistika tizimining rivoji, xalqaro hamkorlikning kengayishi va raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan bevosita bog'liqlik jihatlari o'rganilib, taklif va tavsiyalar berilgan. Maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm xizmatlari rivojlanishining institutsional asoslari chuqur tahlil qilinib, hududiy turizm salohiyatidan samarali foydalanish yo'llari ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, turizm xizmatlari o'sish sur'atlariga ta'sir etuvchi omillar tizimli yondashuv asosida guruhlashtirilib, ularning o'zaro bog'liqligi ochib berilgan. Tadqiqot natijalari hududda turizmni barqaror rivojlantirish, investitsion jozibadorlikni oshirish hamda ichki va tashqi turizm oqimini ko'paytirish bo'yicha amaliy ahamiyatga ega bo'lgan taklif va tavsiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur ish turizm iqtisodiyoti va hududiy rivojlanish masalalarini o'rganishda muhim ilmiy manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 15 april 2026

Approved: 17 april 2026

Volume: 18-A

Paper number: 35

KEYWORDS

service provision, tourism economics, ecotourism, competitiveness, tourist and recreational areas, global tourism, hospitality industry, tourism potential

ANNOTATION

This article examines the institutional development factors influencing the growth rate of tourism services in our country, particularly in the Republic of Karakalpakstan, which is considered one of the leading regions of the country. Studying tourism development trends in the Republic of Karakalpakstan is identified as an important task. The article explores the direct link between improving tourism services and the country's economic reforms, infrastructure modernization, development of the transport and logistics system, expansion of international cooperation, and the implementation of digital technologies. Proposals and recommendations are also provided. Maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm xizmatlari rivojlanishining institutsional asoslari chuqur tahlil qilinib, hududiy turizm salohiyatidan samarali foydalanish yo'llari ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, turizm xizmatlari o'sish sur'atlariga ta'sir etuvchi omillar tizimli yondashuv asosida guruhlashtirilib, ularning o'zaro bog'liqligi ochib berilgan. Tadqiqot natijalari hududda turizmni barqaror rivojlantirish, investitsion jozibadorlikni oshirish hamda ichki va tashqi turizm oqimini ko'paytirish bo'yicha amaliy ahamiyatga ega bo'lgan taklif va tavsiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur ish turizm iqtisodiyoti va hududiy rivojlanish masalalarini o'rganishda muhim ilmiy manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kirish. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy maqsadlaridan biri ustuvor strategik yo'nalishlarni tanlab olishdan iborat. Shu sababli bugungi kunda butun dunyo nazari Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga qaratilgan. Strategiyaning "Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida ta'minlash"ga bag'ishlangan ustuvor yo'nalishida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish" hamda mahallalarning "o'sish nuqtalari" va ularda yashovchi aholining tadbirkorlik faoliyatidagi ixtisoslashuvidan kelib chiqib, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish vazifalari qo'yilgan.

Ushbu vazifalarning bajarilishi makro darajada turizm sohasini rivojlantirish, YaIMdagi ulushini oshirish, aholini yangi ish o'rinlari bilan ta'minlash maqsadida, raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, xalqaro standartlar asosida yangi turistik xizmatlar assortimentini ko'paytirish, yangi yo'nalishlardagi turistik marshrutlarni ko'paytirish, turistlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish tadbirlarini tashkil qilish, zamonaviy turizm infratuzilmasini kengaytirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

O'zbekistonda pandemiyadan keyingi davrda turizm sohasining jadal tiklanishida ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda, bu davlat tomonidan xorijiy va mahalliy turistlar uchun maksimal sharoit yaratish va barcha cheklavlarni olib tashlash bo'yicha ko'riyotgan chora-tadbirlar tufayli amalga oshirilmoqda. Natijada, 2026-yilning o'zida xizmatlar hajmi qariyb 15 foizga o'sib, 82 milliard dollarga yetdi. Xizmatlarga bo'lgan talabni rag'batlantirish uchun 2026-yilda sohaga 85 trillion so'm kredit, 9 trillion so'm subsidiya ajratilib, ta'lim xizmatlari uchun byudjetdan 7 trillion so'm

berilishi qat'iy belgilab berildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti keyingi besh yilda xorijiy turistlar sonini 2 karra (11 milliarddan 20 milliardgacha) oshirish, turizm xizmatlari hajmini esa 20 milliard dollarga yetkazish vazifasini qo'ydi.

Adabiyotlar tahlili. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, turizm sohasining iqtisodiy mohiyati, rivojlanish omillari va institutsional asoslari turli ilmiy manbalarda keng yoritilgan. Xususan, Vinokurov M.A. turizmni iqtisodiy faoliyat turi sifatida izohlab, uning asosiy xususiyati xizmatlar orqali qo'shimcha qiymat yaratish va hududiy rivojlanishga turtki berishdan iborat ekanligini ta'kidlaydi [1]. Muallif turizmning ko'p tarmoqli xarakterga ega ekanligini, ya'ni transport, savdo, madaniyat va xizmat ko'rsatish sohalari bilan uzviy bog'liqligini asoslab beradi.

To'xtaliyev I.S., Qudratov G.X. va Pardayev M.Q. tomonidan yaratilgan darslikda turizmni rejalashtirishning nazariy va amaliy jihatlari chuqur tahlil qilingan bo'lib, unda turizm infratuzilmasini rivojlantirish, hududiy resurslardan samarali foydalanish hamda turistik mahsulotni shakllantirish mexanizmlari yoritilgan [2, 254-bet]. Ushbu manbada ayniqsa turistik hududlarning raqobatbardoshligini oshirishda strategik rejalashtirish muhim omil sifatida ko'rsatib o'tiladi.

Mak Konnell K.R. va Bryu S.L. iqtisodiyot nazariyasiga oid asarida xizmatlar sohasining, jumladan turizmning iqtisodiy tizimdagi o'rni va ahamiyatini tahlil qilib, talab va taklif omillari, narx mexanizmi hamda hozir muvozanati orqali turizm rivojlanishini tushuntiradi [3, 398-bet]. Ularning yondashuvi turizmni umumiy iqtisodiy qonuniyatlar asosida o'rganishga imkon beradi.

Fedorov R.G. esa turizm infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi hisoblangan mehmonxona biznesi rivojlanish tendensiyalarini o'rganib, ayniqsa past turistik jozibadorlikka ega hududlarda kichik va o'rta mehmonxona xo'jaliklarini rivojlantirish zarurligini asoslaydi [4, 15-16-

bet]. Bu esa hududiy turizmni rivojlantirishda institutsional va tadbirkorlik omillarining muhimligini ko'rsatadi.

Mirzaev K. va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa O'zbekistonda xizmatlar sohasi va raqamli iqtisodiyotning rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilinib, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish turizm xizmatlari samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligi qayd etilgan [5, 52-57-bet]. Shuningdek, Mirzaev K.ning boshqa ishlarida xizmatlar sektorini rivojlantirishda institutsional yondashuvlar va ularning iqtisodiy samaradorligi asoslab berilgan [6, 23-25-bet].

Bundan tashqari, Mirzaev K. va Janzakov B. xalqaro turizm rivojlanish omillarini tahlil qilib, turizm oqimlariga ta'sir etuvchi asosiy determinantlar sifatida iqtisodiy barqarorlik, infratuzilma, siyosiy muhit va xalqaro aloqalarning ahamiyatini ko'rsatadi [7]. Ushbu yondashuv Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm xizmatlari rivojlanishini baholashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tahlil qilingan adabiyotlar turizm sohasining rivojlanishi ko'p jihatdan institutsional muhit, infratuzilma, davlat siyosati va innovatsion yondashuvlarga bog'liqligini ko'rsatadi. Shu bois, Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm xizmatlarining o'sish sur'atlarini ta'minlashda ushbu omillarni kompleks ravishda hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda turizm xizmatlarining o'sish sur'atlariga ta'sir etuvchi institutsional omillarni aniqlash uchun tizimli va kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, taqqoslash, statistik tahlil hamda iqtisodiy-mantiqiy usullardan foydalanildi.

Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm sohasining rivojlanish ko'rsatkichlari rasmiy statistik ma'lumotlar asosida o'rganilib, ularning dinamikasi tahlil qilindi. Hududlar kesimida ichki va tashqi turizm oqimlari solishtirilib, mavjud tendensiyalar aniqlashtirildi.

Shuningdek, institutsional omillar — davlat siyosati, normativ-huquqiy baza, infratuzilma rivoji, investitsiya muhiti va raqamli texnologiyalar ta'siri mantiqiy tahlil asosida baholandi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish orqali amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Natijalar. O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish, xususan, zamonaviy turizm infratuzilmasini shakllantirish va takomillashtirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, turizm faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, yangi standartlar va boshqaruv tizimlari takomillashtirilmoqda. Shu bilan birga mehmonxonalar, ovqatlanirish korxonalar, transport tarmoqlarini rivojlantirish orqali infratuzilmani takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni qo'llash, maxsus turistik-rekreatsion hududlarni tashkil qilish borasida tadqiqotlar olib borishga alohida ahamiyat berilmoqda. Binobarin, mamlakatimizda bu masalalarni hal qilish bo'yicha choratadbirlar dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, ularning ijrosini ta'minlash sa'y-harakatlari tobora kuchaytirilmoqda.

Turizm sohasi bilan bog'liq faoliyatning eng muhim iqtisodiy xususiyati shundaki, u rivojlanayotgan mamlakatlarning uchta ustuvor maqsadiga hissa qo'shadi. Birinchisi - daromad olib kelish, ikkinchisi - bandlikni ta'minlash va uchinchisi - valyuta tushumlarini ko'paytirishda harakatchan tarmoq sifatida qayd etiladi. Binobarin, turizm sohasi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida muhim rol o'ynaydi. Mazkur soha iqtisodiy rivojlanishning turli bosqichlariga ta'sir qilar ekan, bu avvalo har bir mamlakatning turistik imkoniyatlariga bog'liq. Turizm iste'molining murakkabligini hisobga olgan holda, uning

iqtisodiy ta'siri boshqa ishlab chiqarish tarmoqlariga integratsiyalashtirilsa, jadal iqtisodiy o'sishga yordam beradi. Turizm sohasida asosiy eksport qilinadigan narsa turistlarning o'zi bilan olib ketadigan taassurotlaridir, ushbu taassurotlar insonning ichki kechinmalari hamda tashqi muhit ta'siri asosida shakllanishini inobatga olish kerak.

Turizm sohasi dunyo iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Uning keng qamrovli taraqqiyoti esa ko'plab mamlakatlar uchun katta daromad manbaiga aylanmoqda. Texnologik taraqqiyot va turizm uzoq vaqtdan beri bir-biri bilan uzviy bog'lanib kelmoqda. So'nggi yillarda aqlli telefonlar, planshet va kompyuterlar kabi mobil quurilmalardan foydalanish sezilarli darajada oshdi. Bugungi kunda o'zgaruvchan global jamiyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari evolyutsiyasi iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili bo'lib hisoblanmoqda. Ushbu evolyutsiya global turizm sanoatini tubdan o'zgartirib, rivojlanishning yangi istiqbollarini taklif qildi, ayniqsa, tashkilotning raqobatbardoshligini oshirish nuqtai nazaridan. Xususan, mehmondo'stlik sanoati uchun Internet taqdim etilayotgan mahsulotlar va xizmatlar to'g'risida ma'lumot tarqatishni maksimal darajada oshirishga katta hissa qo'shmoqda. Respublikamizda, ayniqsa uning yetakchi hududlaridan biri Qoraqalpog'iston respublikasida turizm iqtisodiyotining ustuvor strategik tarmoqlaridan biri sifatida shakllanib, mustaqillik yillarida bosqichma-bosqich rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Qoraqalpog'istonda turizm xizmatlarining takomillashuvi mamlakatning iqtisodiy islohotlari, infratuzilma modernizatsiyasi, transport-logistika tizimining rivoji, xalqaro hamkorlikning kengayishi va raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan bevosita bog'liq. Shu nuqtai nazardan, Qoraqalpog'iston hududi bo'yicha turizm xizmatlarining rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish milliy turizm siyosatining evolyutsion xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Qoraqalpog'iston respublikasida turizm xizmatlarining o'sish sur'atlariga ta'sir etuvchi institutsional rivojlanish omillari sifatida quyidagilar alohida e'tiborga loyiq:

- birinchidan, davlat tomonidan hududiy institutsional asoslarni modernizatsiya qilishga qaratilgan investitsion dasturlar, jumladan, "Yangi O'zbekiston – yangi sayyohlik qiyofasi" konsepsiyasini joriy etish va unga mos "Yangi Qoraqalpog'iston – yangi sayyohlik qiyofasi" konsepsiyasini amalga oshirish;

- ikkinchidan, ichki turizmni rag'batlantirishga yo'naltirilgan marketing va reklama kompaniyalari, jumladan Qoraqalpog'istonda "O'z yurtningni kashf et!" dasturi;

- uchinchidan, Qoraqalpog'iston respublikasida xalqaro mehmonxona tarmoqlarining paydo bo'lishi va xizmat sifati oshishi;

- to'rtinchidan, Qoraqalpog'iston respublikasida madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish hamda ularni xalqaro turistik yo'nalishlarga integratsiya qilishlardan iborat.

Qoraqalpog'iston Respublikasida ekologik turizm yo'nalishlari, xususan Orolbo'yi ekotizimi asosida turistik loyihalar rivojlanishi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, turizm xizmatlarining iqtisodiy hajmida hududlar o'rtasidagi tafovut sezilarli bo'lib, bu investitsiya ulushini alohida olingan mintaqalarda jumladan Qoraqalpog'iston respublikasi turizm infratuzilmasini rivojlantirishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Tahlillar natijasiga ko'ra, Qoraqalpog'iston respublikasida turizm xizmatlarini rivojlantirishning taraqqiyot tendensiyalari o'rganish muhim vazifa sifatida qayd etildi. Unga ko'ra Qoraqalpog'iston respublikasida 2024-yilda tashqi turizm bilan birga ichki turizmni ham jiddiy taraqqiy ettirish imkoniyatlari mavjud ekanligi isbotlandi (1-jadval).

1-jadval.

Qoraqalpog'iston Respublikasida ichki turizmning rivojlantirish holati (2024-yil)

Hududlar	Hisoblangan uy ho'jaliklari soni ming birlikda	Ulardan mamlakat ichida safarni amalga oshirganlar	Ular tomonidan mamlakat ichida amalga oshirilgan safarlar, ming safar	Shuningdek safar uzoqligi bo'yicha:		
				tuman (shahar) ichida	tuman (shahar) dan tashqariga, lekin hudud (viloyatlar, Toshkent sh., Qoraqalpog'iston Respublikasi) ichida	hudud (viloyat, Toshkent sh., Qoraqalpog'iston Respublikasi) dan tashqariga
O'zbekiston Respublikasi	7 492,6	5 664,4	129 467,3	54 052,4	61 883,8	13 531,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	417,2	212,6	4 790,0	2 546,0	2 200,8	43,2

Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm resurslaridan samarali foydalanish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi o'zining boy tabiati, tarixi va madaniy merosiga ega bo'lgan mintaqalar sifatida turizm sohasini rivojlantirish uchun

katta imkoniyatlarga ega. Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm borasida amalga oshirilgan ishlarga e'tibor qaratadigan bo'sak, 2023-yilda Qoraqalpog'istonga 1,2 mln turist (110 ming xorijiy, 1,1 mln mahalliy) tashrif buyurdi va 21 mln AQSh dollari miqdorida turizm xizmatlari eksport qilindi. Xorijiy turistlarning o'rtaqcha qolish muddati davomiyligi 1,5 kundan 3 kunga yetdi.

2024-yilda bu ko'rsatkich ikki barobarga oshirilib, 2,2 mln turist tashrifi prognoz qilinmoqda. Shundan, 200 ming xorijiy va 2 mln mahalliy turist sayohat qilishga erishiladi.

Joriy yilning 1 noyabr holatiga 196 ming 700 dan ortiq xorijiy (rejaga nisbatan 98 foiz) va 1,9 mln ichki turistlar (rejaga nisbatan 98 foiz) tashrifi amalga oshirildi, turizm xizmatlari eksporti 28 mln AQSh dollarga (rejaga nisbatan 93 foiz) yetdi.

Muhokama. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm xizmatlarining o'sish sur'atlari asosan institutsional rivojlanish darajasi bilan bevosita bog'liq. Xususan, davlat tomonidan turizmni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosat, normativ-huquqiy bazaning takomillashuvi va hududiy rivojlanish dasturlarining amalga oshirilishi ijobiy natijalarni yuzaga keltirmoqda. Bu esa o'z navbatida turizm infratuzilmasining kengayishi, yangi turistik obyektlarning tashkil etilishi va xizmatlar sifatining oshishiga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, tahlillar hududda turizm xizmatlari rivojlanishida ayrim muammolar ham mavjudligini ko'rsatadi. Jumladan, transport-logistika tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi, ayrim hududlarda mehmonxona va servis xizmatlari sifati pastligi, kadrlar malakasining yetarli emasligi turizm oqimining to'liq shakllanishiga to'sqinlik qilmoqda. Ayniqsa, ichki turizm salohiyatidan to'liq foydalanilmayotganligi mavjud imkoniyatlar va amaldagi natijalar o'rtasida tafavut mavjudligini anglatadi.

Ekologik turizm yo'nalishlari, xususan Orolbo'yi hududida tashkil etilayotgan loyihalar katta istiqbolga ega bo'lib, bu yo'nalishda xalqaro qiziqish ortib borayotganligi kuzatilmoqda. Biroq ekologik muvozanatni

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Vinokurov M.A., Chto takoye turizm?/nauchnaya statya-www.dissercat.com
2. To'xliyev I.S., Qudratov G'X., Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik.-Toshkent, «Iqtisodiyot-moliya» nashriyoti. 2010.-254 bet.
3. Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономика: Принципы, проблемы и политика. В 2 Т.: Пер. с англ. Т. 2. – Таллин, 1993, стр.398
4. Fedorov Robert Gennadevich "Sovremennye tendentsii razvitiya malix form gostinichnogo biznesa ekonom-klassa na territoriyax s nizkim urovnem turistskoy privilekatelnosti" Sochi-2013 16-15-bet.
5. Djanzokovich, M. K., Faxriddinovich, U. F., O'G'Li, S. F. Q., & Asliddinova, Q. S. (2024). O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. *Journal of marketing, business and management*, 3(4), 52-57.
6. Mirzaev, K. (2011). Approaches and issues for developing livestock services in Uzbekistan. *Perspectives of Innovations, Economics and Business, PIEB*, 8(2), 23-25.

saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va barqaror turizm tamoyillarini joriy etish muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi ham turizm xizmatlari samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Onlayn bronlash tizimlari, raqamli marketing va axborot platformalaridan foydalanish darajasi hali yetarli emasligi hududning global turizm bozoridagi raqobatbardoshligini cheklab turibdi.

Xulosa. Yuqoridagi amalga oshirilgan vazifalardan kelib chiqib xulosa qilishimiz mumkinki, hududning turizm salohiyatini oshirish maqsadida xorijiy davlatlar, jumladan, Germaniya, Xitoy, Tunis, Qozog'iston kabi davlatlarda Qoraqalpog'istonning Nukus shahri, Mo'ynoq, Ellikqal'a, Chimboy, Beruniy, Xo'jayli tumanlariga bo'lgan qiziqishlari ortib, muzey, eko, etno, ekstremal, gastronomik, tarixiy-madaniy, arxeologik, ziyorat turizm hamda hunarmandchilik kabi turistik yo'nalishlarga e'tibor kuchaymoqda.

Xorijiy va mahalliy turistlar oqimini oshirish maqsadida Qoraqalpog'iston uchun alohida "O'zbekistonning shimoliy darvozasi – The Northern Gate of Uzbekistan" nomi ostida targ'ibot strategiyasi amalga oshirish, xalqaro turistik platforma va yarmarkalarda hududning etno, eko, gastronomik turizm hamda hunarmandchiligi to'liq targ'ib qilish rejalashtirilgan.

Ellikqal'a tumani "Sharq Yulduzi" OFY hududida joylashgan "Aqchako'l" turistik rekreatsion zonasini tashkil qilish ishlari olib borilmoqda. Ushbu turistik zona infratuzilmasini yaxshilash uchun 30 mlrd. so'm mablag' ajratilganligi, jumladan, 700 o'rinli amfiteatr ishga tushganligi, "Aqchako'l" bo'yida 1,5 km. plyaj zonasi yaratilganligi, 2 km piyodalar va velo yo'lagi foydalanishga topshirilganligi, 9 km ichimlik suv tarmog'i tortilib, quyosh panellari o'rnatilishi natijasida elektr energiya ta'minoti yaxshilanligi hududning turizm salohiyatini bir qadar yuqori pag'onalarga ko'tarilganligini dalolatidir.

7. Mirzaev, K., & Janzakov, B. (2020). The determinants of international tourism (in the example of CIS countries). *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(2), 2020.
8. UNWTO. *International Tourism Highlights 2024 Edition*. Madrid: World Tourism Organization, 2024. – 48 p.
9. OECD. *Tourism Trends and Policies 2023*. Paris: OECD Publishing, 2023. – 312 p.
10. World Bank. *Rebuilding Tourism for the Future: Policy Frameworks*. Washington, DC: World Bank Group, 2022. – 190 p.
11. Sharpley R. *Tourism Development and the Environment*. London: Routledge, 2020. – 280 p.
12. Hall C.M., Page S. *The Geography of Tourism and Recreation: Environment, Place and Space*. London: Routledge, 2014. – 560 p.
13. UNWTO. *Tourism and Sustainable Development Goals – Policy Guide*. Madrid: UNWTO, 2023. – 75 p.
14. Бабкин А.В. Туризм как фактор регионального развития. – М.: Инфра-М, 2019. – 256 с.
15. Квартальнов В.А. Туризм: теория и практика. – М.: Финансы и статистика, 2018. – 384 с.